



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISH YO‘LLARI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasini mudiri v.v.b +998972456806

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash vositalari, iqtidorli bolalar bilan ishlash yo‘llari va hamkorlik ishlari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, iqtidor, iqtidorli bola, iste‘dod, iste‘dodli bola, ijodkorlik, hamkorlik.

Abstract. This article describes identifying gifted students in primary schools, ways of working with talented children and co-operation.

Key words: primary school, talent, talented child, gift, gifted child, creativity, co-operation.

Iqtidor—bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo‘lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Psixologik lug‘atda “iqtidor” tushunchasi quyidagicha ta‘riflanadi

1. iqtidor bu — faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta‘minlaydigan qobiliyatlarning o‘ziga xos uyg‘unlashuvidir;
2. iqtidor bu — insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o‘ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;
3. iqtidor bu — aqliy potentsial, ta‘lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;
4. iqtidor bu — tabiat tomonidan in‘om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o‘ziga xosligi va ularning namoyon bo‘lishi darajalari;
5. iqtidor bu — iste‘dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta‘kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan



in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Kadrlar tayyorlashda dolzarb va katta iqtidorli yo'nalishlardan biri-maktab o'quvchilari orasidan iqtidorli, zukko bolalarni aniqlab, ularni alohida dasturlar asosida o'qitish, xalq xo'jaligi uchun malakali mutaxassislar yetishtirishdir.

O'zbek avlodini jahonga ko'z-ko'z qiladigan isonlar bu iste'dodli, qobilyatli, zukko, malakali, o'z ishining ustasi bo'lgan yoshlardir.

Dono, tetik, aqli raso bolalarni sinf o'quvchilari orasidan asosli ravishda tanlashimiz va ularni layoqat yonalishlari, qobiliyatlariga qarab u yoki bu sohaga, kasbga yo'naltirishimiz kerak.

Iqtidorli yoshlar eng avvalo quyidagi vositalar bilan aniqlanadi:

- 1) psixologik testlar
- 2) topshiriqlar berish
- 3) suhbatlar o'tkazish

Iqtidorli bolalar bilan ishlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak

1. Maktab rahbari va maktab psixologi bilan hamkorlikda bevosita ish olib borish.
2. Iqtidorli o'quvchilarning mustaqil fikr bildirishi, ijodkorligini namoyon etishi uchun imkoni boricha sharoit yaratib berish.
3. Iqtidorli o'quvchilarning mustaqil fikr bildirishi, ijodkorligini namoyon etishi uchun imkoni boricha sharoit yaratib berish.
4. Iqtidorli o'quvchilarni turli xil "Umid", "Kamolot", "Kamalak", "Kelajak ovozi" kabi jamg'rmalar tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarda faol qatnashishiga yordam berish.
5. Iqtidorli o'quvchilarni ixtisoslashgan sinflarga, maxsus fan to'garaklariga, klublarga jalb qilish.
6. Iqtidorli o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda maktab psixologi, fan o'quvchilari va ota – onalar hamkorligini kuchaytirish.
7. Iqtidorli o'quvchilarni doimiy rag'batlantirish (ijod namunalari ko'rgazmalarni tashkil etish, faxriy yorliqlar berish).



Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda quyidagi reja orqali amalga oshirish samarali natijalarni beradi:

- iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning shaxsiy anketalarini tuzish, ya’ni psixologik test mantiqiy fikrlash qobiliyati, dunyoqarashini aniqlash uchun, fanlarga bo‘lgan iqtidorini aniqlovchi topshiriqlar berish, suhbatlar uyushtirish lozim;

- iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha maxsus reja va mukammal dastur ishlab chiqish, har bir o‘quvchini iqtidori va iste’dodidan kelib chiqqan holda individual tarzda ish olib borish;

- iqtidorli o‘quvchilarni iqtidori bo‘yicha tashkil etilgan to‘garaklarga qo‘shimcha mashg‘ulotlarga jalb qilish;

- iqtidorli o‘quvchilarni fanlar yo‘nalishida o‘qituvchilarga biriktirgan holda mashg‘ulotlar tashkil etish;

- iqtidorli o‘quvchilarni fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarga jalb qilish;

- iqtidorli o‘quvchilarning qiziqishlariga qarab, ularning kichik ilmiy ijodiy ishlariga yo‘naltirish;

- iqtidorli o‘quvchilar ijodiy ish namunalarining ko‘rgazmalar tashkil etish;

- iqtidorli o‘quvchilar faoliyatining monitiringi natijalari asosida ularni rag‘batlantirish.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda ularning psixofiziologik qobiliyatlari albatta inobatga olinishi va hamkorlikda ishlash imkoniyatlariga keng e’tibor qaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богоявленская Д.Б., Богоявленская М.Е., Одаренность: природа и диагностика. М. ЦНПРО, 2013.

2. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. -O‘qituvchi, 1997.

3. R.B.Yormatov, “Iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish” 54-bet. 2017-yil.

4. “Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash masalasiga doir mulohazalar” <https://baxtiyor.uz>.

5. ”Boshlang‘ich sinflarning iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash” <https://fayllar>.